



JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



JIZZAX VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKIOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

*2023- yil 1- sentabr holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)*

*Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi
Adliya vazirligi Davlat xizmatlari markazi
ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi*

So‘ngi yillarda hukumatimiz tomonidan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va bunyodkorlik salohiyatini qo‘llab-quvvatlash orqali aholiga munosib hayot sharoitlarini yaratish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, bandlikni ta‘minlash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy bo‘g‘ini hisoblanib, bugungi kunda mazkur sohani jadallik bilan rivojlantirish, tadbirkorlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ularning safini yanada kengaytirish va rag‘batlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilyapti.


Jumladan, 2023- yil 1- sentabr holatiga viloyatda faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni (fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari) **20 094** tani tashkil etdi (ulardan kichik korxonalar va mikrofirmalar **16 880** ta). O‘tgan yilning mos davriga nisbatan faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar sonining kamayishi **80,5** foizni (jumladan, kichik korxonalar va mikrofirmalar **78,1** foiz) tashkil etdi.

Korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida umumiy ma‘lumotlar

fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari, 1- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda.

Faoliyat ko‘rsatayotgan


Ro‘yxatdan o‘tgan




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar

2023- yil yanvar-avgust holatiga ko‘ra, birlikda



Yillar kesimida soni



Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



2023- yil yanvar-avgust oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni 2022- yilning mos davri bilan solishtirilganda **322** taga kamayganligini ko‘rish mumkin.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar sonining tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha 2022- yilning mos davri bilan solishtirilganda, mas’uliyati cheklangan jamiyatlar **30** taga ko‘paygan, oilaviy korxonalar **260** taga kamaygan.



Hududlar kesimida

Jizzax sh.	624	12,0 %	Zarbdor t.	187	17,0 %
G‘allaorol t.	396	21,2 %	Mirzacho‘l t.	137	17,1 %
Zomin t.	325	18,4 %	Zafarobod t.	124	19,4 %
Forish t.	258	16,9 %	Arnasoy t.	120	16,5 %
Sharof Rashidov t.	276	10,7 %	Yangiobod t.	87	16,4 %
Baxmal t.	200	14,0 %	Do‘stlik t.	86	16,5 %
Paxtakor t.	197	18,6 %			

2023- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)

Yillar kesimida soni



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar



2023- yi 1- sentabr holatiga faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni **20 094** tani tashkil etib. 2022-yilning mos davriga (**24 972** ta) nisbatan **4 878** taga quyidagi sohalarida korxonalar sonining sezilarli kamayganligi bilan ifodalash mumkin: savdo – **6 495** tadan **5 648** taga (kamayish **847** ta), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **4 436** tadan **3 413** taga (kamayish **1 023** ta), sanoat – **3 936** tadan **2 679** taga kamayish **1 257** ta).

Hududlar kesimida


Jizzax sh.	5 192	Paxtakor t.	1 059
Sharof Rashidov t.	2 568	Do'stlik t.	884
G'allaorol t.	1 865	Mirzacho'l t.	799
Zomin t.	1 770	Arnasoy t.	728
Forish t.	1 530	Zafarobod t.	640
Baxmal t.	1 430	Yangiobod t.	531
Zarbdor t.	1 098		

2023- yil yanvar-avgust holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat
ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo





Axborot va aloqa



Sanoat




Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Davlatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlariga qulay shart-sharoitlar yaratib borish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida ularning yildan-yilga investitsiya va ishbilarmonlik muhiti yaxshilanib borayotgani namoyon bo'lmoqda. 2023- yil yanvar-avgust oylarida yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni **2 960** ta bo'lib, shundan:

- mikrofirmalar va kichik korxonalar **2 944** ta;
- yirik korxonalar **16** ta.



Hududlar kesimida

Jizzax sh.	601	13,5 %	Zarbdor t.	184	20,1 %
G'allaorol t.	389	24,4 %	Mirzacho'l t.	137	21,2 %
Zomin t.	320	21,7 %	Zafarobod t.	123	24,5 %
Sharof Rashidov t.	270	12,0 %	Arnasoy t.	120	20,3 %
Forish t.	257	19,3 %	Yangiobod t.	85	19,5 %
Paxtakor t.	197	22,3 %	Do'stlik t.	85	12,0 %
Baxmal t.	192	16,5 %			


2023- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)

Yillar kesimida soni



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar


Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni 2023- yil 1- sentabr holatiga **16 958** taga yetib, 2019- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **124,5** foizni tashkil etdi (**3 337** ta). Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – **33,3** foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – **19,9** foiz, sanoat – **15,8** foiz, qurilish – **9,0** foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – **7,2** foiz, tashish va saqlash – **2,5** foiz, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish – **1,5** foiz, axborot va aloqa – **1,2** foiz, boshqa turlari – **9,6** foiz.

Hududlar kesimida


Jizzax sh.	4 466	Paxtakor t.	882
Sharof Rashidov t.	2 242	Do'stlik t.	709
G'allaorol t.	1 597	Mirzacho'l t.	646
Zomin t.	1 473	Arnasoy t.	591
Forish t.	1 335	Zafarobod t.	502
Baxmal t.	1 166	Yangiobod t.	435
Zarbdor t.	914		

2023- yil yanvar-avgust holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni



Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Mamlakat iqtisodiyotining "sog'lomligi"ni baholashning muhim omili – kichik biznes subyektlarining samarali faoliyat ko'rsatishi bo'lib, bu uning moslashuvchanligi va doimiy o'zgaruvchan iqtisodiy vaziyatlarga moslasha olish ko'rsatkichidir.

Shunda, 2023- yil yanvar-avgust oylarida yashash va ovqatlanish sohasida yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari soni 2022-yilning mos davriga nisbatan **189** tadan **217** taga (ko'payish **28** taga) ko'paydi.



Hududlar kesimida

Jizzax sh.	596	13,5 %	Zarbdor t.	182	20,0 %
G'allaorol t.	389	24,4 %	Mirzacho'l t.	137	21,3 %
Zomin t.	318	21,7 %	Zafarobod t.	123	24,6 %
Sharof Rashidov t.	268	12,0 %	Arnasoy t.	120	20,3 %
Forish t.	256	19,2 %	Do'stlik t.	85	12,0 %
Paxtakor t.	196	22,3 %	Yangiobod t.	53	19,5 %
Baxmal t.	189	16,3 %			

2023- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)

Yillar kesimida soni



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Shahar va tumanlar kesimda eng ko'p kichik biznes subyektlari Zafarobod (**24,6 foiz**), G'allaorol (**24,4 foiz**), Paxtakor (**22,3 foiz**) va Zomin (**21,7 foiz**) tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu tumanlarda jami kichik biznes subyektlari sonining 50 foizdan ortig'i faoliyat ko'rsatmoqda.

Ma'lumki ayni paytda kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida ilg'or faoliyat yuritmoqda.


Hududlar kesimida

Jizzax sh.	4 429	Paxtakor t.	879
Sharof Rashidov t.	2 238	Do'stlik t.	706
G'allaorol t.	1 592	Mirzacho'l t.	642
Zomin t.	1 465	Arnasoy t.	591
Forish t.	1 331	Zafarobod t.	500
Baxmal t.	1 161	Yangiobod t.	435
Zarbdor t.	911		

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida faoliyat
ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar
2023- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda

Hududlar kesimida


Forish t.	642
Sharof Rashidov t.	371
Baxmal t.	341
G‘allaorol t.	322
Zomin t.	257
Jizzax sh.	225
Arnasoy t.	221
Mirzacho‘l t.	221
Zarbdor t.	220
Do‘stlik t.	173
Yangiobod t.	152
Zafarobod t.	140
Paxtakor t.	128



O‘zbekiston Respublikasida mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning chuqur o‘ylangan strategiyasi izchil amalga oshirilmoqda.

Davlatimiz iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarining muhim tarkibiy qismlaridan biri meva-sabzavot yetishtirishga qaratilgan. Bunday yondashuv aholi ehtiyojlarini to‘liq ta’minlash, ularning salomatligini saqlash va bandlik shart-sharoitlarini yaratishda asosiy yo‘nalishlardan biriga aylandi.


Baliq ovlash va akvakultura



2023- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda


Hududlar kesimida

Jizzax sh.	732
Sharof Rashidov t.	364
G'allaorol t.	309
Zomin t.	248
Zarbdor t.	171
Forish t.	147
Paxtakor t.	139
Baxmal t.	128
Do'stlik t.	116
Mirzacho'l t.	104
Arnasoy t.	88
Zafarobod t.	78
Yangiobod t.	55



Sanoat tarmog'i iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega bo'lgan tarmoqlardan hisoblanadi. So'nggi besh yil ichida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalari sonining o'sish sur'ati **98,5** foizni tashkil etdi.


Sanoat korxonalari soni jami korxonalar va tashkilotlarning **13,3** foiz ulushini tashkil etdi. Shundan **95,0** foizini ishlab chiqarish sanoati (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish **68,0** foiz), **3,4** foizini tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash (o'sish **69,2** foiz), **1,0** foizini suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish (o'sish **58,3** foiz) va **0,5** foizini elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash (o'sish **100,0** foiz) tashkil etgan.



2023- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Jizzax sh.	604
Sharof Rashidov t.	229
G'allaorol t.	124
Zomin t.	104
Zarbdor t.	88
Paxtakor t.	83
Forish t.	67
Baxmal t.	56
Do'stlik t.	51
Mirzacho'l t.	49
Arnasoy t.	41
Zafarobod t.	27
Yangiobod t.	24



O'zbekistonda qurilish sanoati iqtisodiyotning ustuvor tarmog'i sifatida belgilangan. Qurilish sanoatining yo'nalishlari bo'yicha o'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatdiki:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi **52,4** foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan **71,8** foizga kamaygan;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi **25,7** foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan **71,5** foizga kamaygan;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi **21,9** foiz ulushni va **75,8** foiz o'sish sur'atini tashkil etdi.

398


Fuqarolik
obyektlarini qurish

339

Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari

810


Bino va
inshootlar qurish



2023- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Jizzax sh.	1 592
Sharof Rashidov t.	808
Zomin t.	535
G'allaorol t.	527
Baxmal t.	433
Paxtakor t.	346
Forish t.	312
Zarbdor t.	241
Do'stlik t.	231
Zafarobod t.	177
Arnasoy t.	173
Mirzacho'l t.	152
Yangiobod t.	121



Tahlillar shuni ko'rsatdiki, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan har uchinchi korxonalar savdo sohasida faoliyat yuritadi, ularning **99,8** foizi yoki **5 638** tasi kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi.

Savdo sohasining yo'nalishlar bo'yicha taqsimoti quyidagicha:

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo'nalishi **64,6** foiz ulushni tashkil etgan bo'lib, 2022- yilning mos davri bilan solishtirilganda o'sish sur'ati **88,9** foizni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo'nalishida **25,1** foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati **83,8** foizni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash yo'nalishida **10,4** foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati **83,1** foizni tashkil etdi.

585

Avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash

1 417

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo


3 646

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo

2023- yil 1-sentabr holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Jizzax sh.	371
Sharof Rashidov t.	195
Zomin t.	113
G'allaorol t.	96
Paxtakor t.	77
Zarbdor t.	70
Baxmal t.	61
Do'stlik t.	52
Mirzacho'l t.	52
Forish t.	52
Yangiobod t.	31
Zafarobod t.	30
Arnasoy t.	18



2023- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar o'sish sur'ati 2019- yilning mos davriga nisbatan **113,7** foizni tashkil etdi. Ushbu xizmatlar sohasi tahlili shuni ko'rsatdiki:

- mehmonxonalar, turistik oromgo'harlar, dam olish va ko'ngilochar parklar yashash bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosiy faoliyati hisoblanib, 2023- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning **8,5** foiz ulushini tashkil etdi;

- restoran va buyurtma bo'yicha oziq-ovqat va ovqat mahsulotlarini yetkazish, oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasining **91,5** foiz ulushini tashkil etdi.

104

Yashash bo'yicha xizmatlar



1 114


Oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar



2023- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Jizzax sh.	109
G'allaorol t.	18
Paxtakor t.	16
Baxmal t.	16
Zomin t.	15
Sharof Rashidov t.	14
Do'stlik t.	7
Yangiobod t.	7
Zarbdor t.	6
Mirzacho'l t.	6
Forish t.	6
Zafarobod t.	4
Arnasoy t.	3



2023- yil 1- sentabr holatiga ko'ra noshirlik faoliyati, kino-videofilmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish yo'nalishlarida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni axborot va aloqa sohasining **9,7** foizini tashkil etib, o'sish sur'ati 2022- yilning mos davriga nisbatan **88,0** foizni tashkil etdi.

Dasturlar yaratish bo'yicha faoliyat va teleko'rsatuv va radioeshittirishlar hamda aloqa yo'nalishlaridagi korxonalar soni axborot va aloqa sohasining **26,4** foizini tashkil etib, o'sish sur'ati 2022- yilning mos davriga nisbatan **61,2** foizni tashkil etdi.


Kompyuter dasturlashtirish va axborot xizmati ko'rsatish yo'nalishlarida esa korxonalar soni, axborot va aloqa sohasidagi korxonalar va tashkilotlarning **63,9** foizini tashkil etib, o'sish sur'ati **99,3** foizni tashkil etdi.



2023- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Jizzax sh.	167
G'allaorol t.	32
Zomin t.	29
Sharof Rashidov t.	22
Baxmal t.	14
Paxtakor t.	13
Zarbdor t.	11
Mirzacho'l t.	10
Forish t.	8
Yangiobod t.	8
Do'stlik t.	7
Zafarobod t.	6
Arnasoy t.	5



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan jami korxonalar va tashkilotlarning salmoqli qismi **332** ta yoki **1,7** foiz ulushi tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Yo'nalishlar bo'yicha tahlil shuni ko'rsatdiki:

92,5 foiz korxonalar sog'liqni saqlash yo'nalishiga to'g'ri kelib, o'sish sur'ati 2022- yilning mos davriga nisbatan **97,2** foizni tashkil etdi;

Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash yo'nalishidagi korxonalar soni **5,1** foizni tashkil etib, o'sish sur'ati **70,8** foizni tashkil etdi;


Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish yo'nalishidagi korxonalar soni ushbu sohaning **2,4** foizini tashkil etib, o'sish sur'ati **80,0** foizni tashkil etdi;



2023- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Jizzax sh.	152
Sharof Rashidov t.	81
Zomin t.	28
G'allaorol t.	25
Zarbdor t.	24
Baxmal t.	21
Do'stlik t.	21
Paxtakor t.	21
Mirzacho'l t.	15
Arnasoy t.	12
Zafarobod t.	8
Forish t.	7
Yangiobod t.	7



2023- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar jami viloyatdagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonaning **2,1** foiz ulushini tashkil etdi.


2022- yilning mos davri bilan solishtirganda tashish va saqlash xizmatlarining yo'nalishlari bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatdiki:

quruqlikdagi va quvur transporti yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish sur'ati **68,6** foizni tashkil etdi;

ombor xo'jaligi va yordamchi transport yo'nalishining o'sish sur'ati **74,8** foizni; pochta va kuryerlik yo'nalishi **50,0** foizni tashkil etdi;

havo transporti yo'nalishida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni **100,0** foizni tashkil etdi;


suv transporti yo'nalishidagi korxonalar soni mavjud emas.



Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha umumiy ma‘lumot
2023- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda

Tadbirkorlik subyektlari soni


Tadbirkorlik subyektlarining jamiga nisbatan ulushi




Tashkiliy-huquqiy shakl deganda, subyekt tomonidan mulkning biriktirilishi, shakllantirilishi va undan foydalanish usuli hamda uning bundan kelib chiquvchi huquqiy holati va faoliyat maqsadi tushuniladi. Shuningdek, quyidagilar bilan bog‘liq masalalarni hal qilishda foydalaniladi:

- xo‘jalik yurituvchi subyektlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni o‘z ichiga olgan registr, reyestr va kadastrlarning axborot resurslarini shakllantirish;
- tashkiliy-huquqiy shakllar doirasida statistika ma‘lumotlarini ishlab chiqish;
- idoralararo axborot almashinishini ta‘minlash;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni va hodisalarni tahlil qilish va prognozlashtirish.

2023- yil yanvar-avgust holatiga ko'ra, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Mas'uliyati cheklangan jamiyati – bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalarini qiymati doirasida javobgar bo'ladilar. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.


Hududlar kesimida

Jizzax sh.	506	Mirzacho'l t.	131
Forish t.	249	Arnasoy t.	106
Zomin t.	232	Paxtakor t.	90
Sharof Rashidov t.	217	Do'stlik t.	79
G'allaorol t.	180	Zafarobod t.	72
Baxmal t.	177	Yangiobod t.	66
Zarbdor t.	162		


2023- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



2023- yil 1- sentabr holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan **16 958** ta tijorat korxonasi va tashkilotlarining **12 155** tasi mas'uliyati cheklangan jamiyatlar ulushiga to'g'ri keladi. Mazkur jamiyatlar mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatining eng keng tarqalgan shakli hisoblanadi.


Sohalar kesimida o'sish sur'atlarining tahlili shuni ko'rsatdiki, eng yuqori ko'rsatkich tashish va saqlashda **87,9** foiz, qurilishda **84,1** foiz, axborot va aloqada **80,6** foizni tashkil etdi.

Hududlar kesimida

Jizzax sh.	3 595	Do'stlik t.	565
Sharof Rashidov t.	1 825	Mizacho'l t.	478
Zomin t.	960	Paxtakor t.	458
Baxmal t.	943	Arnasoy t.	453
Forish t.	865	Zafarobod t.	300
G'allaorol t.	844	Yangiobod t.	229
Zarbdor t.	640		

2023- yil yanvar-avgust holatiga ko'ra, birlikda


Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat
ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Savdo





Axborot va aloqa




Sanoat




Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Xususiy korxonalar – mulkdor yagona jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan va boshqariladigan tijoratchi tashkilot deb e'tirof etiladi. Xususiy korxonalar tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shaklidir.

Xususiy korxonalar o'z mulkida alohida mol-mulkka ega bo'ladi, o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'lishi hamda ularni amalga oshirishi, majburiyatlarni bajarishi, suda da'vogar va javobgar bo'lishi mumkin.

2023- yil yanvar-avgust oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar soni 2022- yilning mos davriga nisbatan **30** taga, sanoat **27** taga ko'paygan.


Hududlar kesimida

G'allaorol t.	176	Baxmal t.	7
Paxtakor t.	64	Sharof Rashidov t.	7
Zafarobod t.	45	Mirzacho'l t.	5
Jizzax sh.	24	Zarbdor t.	3
Yangiobod t.	18	Forish t.	3
Zomin t.	11	Do'stlik t.	1
Arnasoy t.	7		

2023- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



2023- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan xususiy korxonalar soni o'tgan yilning mos davriga nisbatan **31,4** foizga kamaydi.


Xususiy tadbirkorlik subyektlari o'sish sur'atlarining o'tgan yilga nisbatan kamayishiga sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (**89,6** foiz), savdo (**74,9** foiz), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (**71,4** foiz), tumanlar kesimida esa, Paxtakor (**96,7** foiz), Yangiobod (**82,0** foiz), G'allaorol (**77,2** foiz), va Zafarobod (**73,8** foiz) tumanlari ta'sir ko'rsatmoqda.

Hududlar kesimida

G'allaorol t.	534	Baxmal t.	136
Jizzax sh.	450	Zarbdor t.	132
Forish t.	400	Mirzacho'l t.	124
Zomin t.	289	Zafarobod t.	124
Paxtakor t.	231	Arnasoy t.	113
Yangiobod t.	169	Do'stlik t.	76
Sharof Rashidov t.	168		

2023- yil yanvar-avgust holatiga ko'ra, birlikda


Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning
ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo




Axborot va aloqa




Sanoat




Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Oilaviy korxonalar – uning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish) va realizatsiya qilishni amalga oshirish uchun ixtiyoriy asosda, oilaviy korxonalar ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulkida bo'lgan umumiy mol-mulk, shuningdek, oilaviy korxonalar ishtirokchilaridan har birining mol-mulki negizida tashkil etiladigan kichik tadbirkorlik subyektidir.

Oilaviy korxonalar faoliyati uning ishtirokchilari shaxsiy mehnatiga asoslanadi va tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakllaridan biridir.

Hududlar kesimida


Zomin t.	77
Jizzax sh.	70
Sharof Rashidov t.	46
Paxtakor t.	43
G'allaorol t.	32
Zarbdor t.	18

Baxmal t.	8
Arnasoy t.	7
Do'stlik t.	4
Zafarobod t.	4
Mirzacho'l t.	1
Forish t.	1

2023- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tib, faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2023- yil 1- sentabr holatiga ko'ra 2020- yilning mos davriga nisbatan **489** taga ko'paygan.

Bu esa quyidagi sohalaridagi korxonalar: savdoda **180** tadan **452** taga (o'sish **272** taga), sanoatda **446** tadan **566** taga (o'sish **120** taga), yashash va ovqatlanishda **185** tadan **228** taga (o'sish **43** taga) sonining sezilarli oshishi bilan izohlanadi.


Hududlar kesimida

Jizzax sh.	359	Do'stlik t.	60
Sharof Rashidov t.	229	Baxmal t.	57
Zomin t.	199	Forish t.	36
G'allaorol t.	195	Mirzacho'l t.	31
Paxtakor t.	187	Yangiobod t.	18
Zarbdor t.	117	Arnasoy t.	14
Zafarobod t.	63		

2023- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o‘shish sur‘ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Keyingi besh yilda xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar soni **1,1** foizga kamaydi.

Yetakchi o‘rinni **73** ta korxonada to‘liq yoki qisman ulushi mavjud bo‘lgan Turkiya egallagan. Bu viloyatda xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar umumiy sonining **41,7** foiz ulushini tashkil etadi. Shuningdek, O‘zbekiston iqtisodiyotiga o‘z kapitalini kiritayotgan Xitoy (ulushi **20,6** foiz), Rossiya Federatsiyasi (ulushi **21,7** foiz) va Angliya (ulushi **12,0** foiz) davlatlari ham yetakchilar hisoblanishadi.

Hududlar kesimida

Jizzax sh.	56	Arnasoy t.	7
Forish t.	24	Baxmal t.	7
Sharof Rashidov t.	18	Zafarobod t.	6
Zomin t.	15	Mirzacho‘l t.	5
G‘allaorol t.	11	Yangiobod t.	5
Paxtakor t.	9	Zarbdor t.	4
Do‘stlik t.	8		

2023- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda

O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Buning samarasida, bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotning turli tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun zarur bo'lgan ichki sharoitlarni yaratish jarayonini rag'batlantirishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.

Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan **111** tasi qo'shma korxonalar, **64** tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.

2023- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda

xorijiy korxonalar

qo'shma korxonalar

64	Jizzax viloyati	111
23	Jizzax shahri	33
6	Sh.Rashidov tumani	12
6	Zomin tumani	9
6	Forish tumani	18
5	Zafarobod tumani	1
4	G'allaorol tumani	7
4	Do'stlik tumani	4
3	Arnasoy tumani	4
3	Mirzacho'l tumani	2
2	Yangiobod tumani	3
1	Zarbdor tumani	3
1	Paxtakor tumani	8
0	Baxmal tumani	7

2023- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda



So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotni jadal o'zgartirishni boshdan kechirdi va xalqaro hamjamiyatda ochiqlik, innovatsiya va biznes va sarmoyaviy to'siqlarni bartaraf etishda qat'iylik timsollaridan biri sifatida tobora ko'proq e'tirof etilmoqda.

Demak, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonining ko'payishi, avvalambor, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining huquqiy asoslari takomillashtirilgani bilan bog'liq.

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Yuridik shaxslarning faollik darajasi – ma'lum bir davrda faoliyat ko'rsatmayotgan yuridik shaxslarning jami ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslarga nisbatining foizdagi ifodasi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo'limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida 2023- yil 1- sentabr holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.



Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Statistika agentligining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, soʻralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qoʻyilgan.



Statistik registrlarni yuritish
boʻlimi
Tel.: (72) 221-51-24